

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

XABIBILLAYEV NODIRBEK NOSIRJON O‘G‘LI

**O‘ZBEK TILI SO‘Z TARKIBI LUG‘ATINI TUZISHNING
LINGVISTIK ASOSLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) in
Philological Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

Xabibillayev Nodirbek Nosirjon o'g'li

O'zbek tili so'z tarkibi lug'atini tuzishning lingvistik asoslari 3

Khabibillaev Nodirbek Nosirjon ugli

Linguistic foundations of the formation of the lexical composition of the uzbek language..... 27

Хабибиллаев Нодирбек Носиржон угли

Создать словарь узбекского языка основы лингвистики..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

List of published works

Список опубликованных работ 54

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

XABIBILLAYEV NODIRBEK NOSIRJON O‘G‘LI

**O‘ZBEK TILI SO‘Z TARKIBI LUG‘ATINI TUZISHNING
LINGVISTIK ASOSLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Fil4037 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.namdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyo.net) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Islamov O'tkurjon Hosiljonovich
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Xamroyeva Shahlo Mirdjonovna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "17" mart soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 227-06-12; Tel.: (+99869) 228-85-01, Faks: (+99869) 228-85-02. Web-sayt: www.namdu.uz, e-mail: info@namdu.uz, faks: (+99869) 227-07-61; e-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1780-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi, 161-uy, Tel.: (+99869) 228-85-01).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "7" mart kuni tarqatildi.
(2025-yil "5" may dagi 29 raqamli reyestr bayonnomasi).



Z.Y.Sodikov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d. (DSc), professor

I.O'.Darvishov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

F.I.Karimova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida morfemika va soʻz tarkibi sohalarining mustaqil yoʻnalishlar sifatida taraqqiy etishi, lugʻatlarning yaratilishida milliy morfemika va soʻz tarkibini rivojlantirish masalalari hamda bu boradagi tadqiqotlarning amaliy qamrovi kengaymoqda. Bu esa mazkur sohalaridagi ilmiy izlanishlarning amaliyot bilan bogʻliq zarur lisoniy ehtiyoj ekanini yaqqol koʻrsatib beradi. Soʻzlarni tarkibga ajratish borasida bugungi kunda muammolar yetarlicha koʻzga tashlanib, mazkur yoʻnalishda eng koʻp munozarali lisoniy vaziyatlar maydonga kelmoqda.

Dunyo tilshunosligida ilmiy yondashuvlar asosida tilning milliy korpusini yaratish, til birliklaridan samarali va natijador foydalanishni taʼminlash borasida ham koʻplab tadqiqotlar maydonga kelmoqda. Xususan, milliy korpusni yaratishda morfemalarning semantik jihatdan mutanosiblashuvining ilmiy-nazariy asoslarini aniq va mukammal holga keltirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. XXI asrga kelib, korpus lingvistikasini ilmiy-nazariy jihatdan oʻrganish harakatlarining kuchayib borishi sezilmoqda. Milliy tillar avtomatik tarjima sifatini yaxshilash, har bir tilga oid soʻzlarni lemmalash, lemmatizatsiyalash, teglash nazariyasi algoritmi hamda lingvistik taʼminotini yaratish, matn tahlil qilish, tarjima dasturlarining ilmiy asoslarini ishlab chiqish va yaratish elektron texnologiyalar davrida zaruriy masala sifatida qoʻyilmoqda. Bugungi davrda informatsion texnologiyalar, jumladan, elektron dasturlar orqali tilshunoslikning sohaviy fanlarini jamiyat hayotiga joriy qilish, milliy leksik birliklarning tarkibi masalalarini ilmiy-sistem tadqiq qilish alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Oʻzbek tilshunosligida ham "...respublikamiz hayotining barcha sohalarida yuz berayotgan katta oʻzgarishlar, rivojlangan juda koʻp mamlakatlar bilan aloqalarning tobora kuchayib borayotganligi qisqa vaqt mobaynida oʻzbek tili, xususan, uning leksikasi rivojiga sezilarli taʼsir koʻrsatdi. Ana shunday omillar taʼsirida oʻzbek tili lugʻat tarkibida yuz bergan jiddiy oʻzgarishlar munosabati bilan tilning davr talabiga javob beradigan koʻp jildli izohli lugʻatini tuzish va chop etish"¹ ishlari amalga oshirilganidan soʻng yanada rivojlanmoqda. Tilning lugʻat boyligida boʻlgan oʻzgarishlar va oʻzga tildan kirib kelayotgan morfemalar lugʻatning boshqa turlarining ham yangilanishini, jumladan, soʻz tarkibi lugʻatining yangi variantlariga boʻlgan ehtiyojni yanada oshiradi. Bugungi kunda oʻzbek tilshunosligida morfemikaning va soʻz tarkibining oʻrni, umumiy va xususiy tarkibga ajratish muammolari bilan bogʻliq tadqiqotlar muayyan darajada amalga oshirilayotgan boʻlsa-da, soʻzlarning tarkibi va uning tahlili masalasi muammoligicha qolmoqda. Bunga ushbu tildagi birliklarga yetarli baho bermaslik, oʻzga til tajribalaridan koʻr-koʻrona foydalanish, lingvistik qarashlarda anʼanaviylik, mavjud yangiliklarni tan olmaslik kabi omillar sabab boʻlmoqda. Sohaga oid amaldagi manba sifatida soʻz tarkibi lugʻatini tuzishga bagʻishlangan ushbu dissertatsiya mavzusi ham oʻzbek tilshunosligi oldiga qoʻyilayotgan vazifalarning bajarilishiga ulush boʻlib qoʻshiladi.

¹ Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 6 jildli. 1-jild. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2023. – B. 6.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4997-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorlari va mazkur soha faoliyatiga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsion tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbek tilshunosligida so‘z tarkibi va morfemikaga doir qator tadqiqotlar² amalga oshirilgan. So‘zlarni tarkibga ajratishni takomillashtirish masalasiga bag‘ishlangan qator tadqiqot, lug‘at va qo‘llanmalar chop etilgan. Ta‘kidlash kerakki, A.G‘ulomov o‘zbek tilshunosligida birinchi bo‘lib so‘zlarni tarkibga ajratuvchi lug‘at tuzishni boshlab berdi³, keyinchalik va hozirgi kunda ham so‘zlarni tarkibga ajratish masalasi turli tomondan o‘rganib kelinmoqda. Jumladan, so‘zlarni tarkibga ajratish borasida⁴, morfemika borasida umumiy ma‘lumot berilgani⁵, so‘z yasaliishi borasida⁶, shakl

² Ҳожиёв А. Ўзбек тилининг кўп жилдли изоҳли луғатини тузувчилар учун йўриқнома. 9-бет; Ақобиров С. Ф. Ўзбек тили луғатининг баъзи бир масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари, 1960; Ақобиров С. Ф. Ўзбек тилининг изоҳли луғатида қўшма сўзлар // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари, 1965, №6; Usmonova M. O‘zbek tilida so‘z morfem tarkibining soddalashishi: fal. fan. dok. ... dis. – Samarqand, 2018; Qo‘ziyev U. O‘zbek tilidagi izohli lug‘atlarda o‘zlashma so‘zlar tadqiqi: fal. fan. dok. ... dis. – Namangan, 2018; Uralov A. O‘zbek tili qo‘shimchalari tizimida murakkab va “kengaygan shakl”lar: fal. fan. dok. ... dis. – Toshkent, 2019.

³ Ғуломов А. ва бошқ. Ўзбек тили морфем луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977.

⁴ Бердалиев А. Сўз таркиби ва шакл-маъно нумутаносибиги. – Бишкек, 2013. – 154 б; Раҳматуллаев Ш. Тил қурилишининг асосий бирликлари. – Тошкент: Университет, 2002. 58 бет; Раҳматуллаев Ш. Отларда негизлар (биринчи мақола) // Ўзбек тили ва адабиёти. 1971; Раҳматуллаев Ш. Отларда негизлар (иккинчи мақола) // Ўзбек тили ва адабиёти, 1971; Тожиёв Ё. Ўзбек тилида эргаши морфемаларнинг семантик-стилистик ва функционал хусусиятлари. – Тошкент, 2014. 267 бет; Mengliyev B., Bahriddinova B. O‘zbek tilining so‘z tarkibi o‘quv lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 56 бет; Ғуломов А. ва бошқ. Ўзбек тили морфем луғати. – Тошкент: Ўқитувчи – 1977. – 463 бет.

⁵ Бердалиев А. Ҳозирги ўзбек адабий тили, морфемика, сўз ясаиши. Морфонология. – Хўжанд, 2015. – 134 б; Мирзақулов Т. Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси масалалари: фил. фан. док. дис. – Тошкент, 1994; Тожиёв Ё. Ўзбек тили морфемикаси. – Тошкент, 1992.

⁶ Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясаиши тизими. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007; Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясаиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989; Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясаишининг назарий масалалари. – Тошкент: Фан, 2010; Ҳожиёв А. Сўзнинг морфологик ва сўз ясаиш структураси.// Ўзбек тили ва адабиёти, 1976; Mengliyev B. va boshq. O‘zbek tilining so‘z yasaliishi o‘quv lug‘ati. – Toshkent, 2007.

yasalishi borasidagi manbalar⁷ shular jumlasidandir. Tadqiqotning dolzarbligidan kelib chiqqan holda ishimizda o‘zbek tilining izohli hamda imlo lug‘atlarida berilgan lug‘aviy birliklarning tarkibga ajratilishi haqida tavsifiy ma’lumot to‘plandi va to‘plangan ma’lumotlar asosida o‘zbek tilining so‘z tarkibi lug‘ati tuzildi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Pedagogik ta’lim va tarbiya transformatsiyasida fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarning konseptual asoslari” mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek tili so‘z tarkibi lug‘atini yaratishning lingvistik asoslarini ko‘rsatish va belgilash hamda takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mavzuga doir ilmiy manbalarni tahlil qilish va umumlashtirish, shuningdek, o‘zbek tilshunosligida morfemaga bo‘lgan munosabatni ko‘rsatish;

o‘zbek tilining izohli (1981, 2006 – 2008, 2022-yillardagi nashrlar asosida) va morfem (1977-yildagi nashr asosida) hamda imlo lug‘atlaridagi (2013, 2023-yillardagi nashrlar asosida) lug‘aviy birliklarning tarkibga ajratilishi borasida xulosalar berish;

o‘zbek tilshunosligida “sar” shaklining leksema sifatidagi o‘rnini dalillash;

ilmiy manbalardagi affiksoidlar haqidagi fikrlarni tahlil etish hamda ushbu atamaning o‘zbek tilshunosligidagi o‘rniga baho berish;

murakkab tarkibga ega bo‘lgan birliklarning (ravishlar, bir necha prefiksli so‘zlar, o “interfiks”li so‘zlar, arab artiklli so‘zlar, izofali birikmalar, qaratqichli birikmalarning leksikalizatsiyasi, to‘ldiruvchili birikmalar, ega-kesim munosabatli birliklar) tarkibga ajratilishi borasida aniq xulosalar berish;

so‘z tarkibi lug‘atini tuzish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida (1981-yilda nashr etilgan ikki, 2006 – 2008-yillarda nashr etilgan besh jildli hamda 2022-yilda nashr etilgan olti jildli), morfem (1977-yilgi nashr), so‘z tarkibi (2007-yilgi nashr) va imlo lug‘atlaridagi (2013, 2023-yillarda nashr etilgan) mavjud lug‘aviy birliklar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek tilining izohli hamda imlo lug‘atlarida mavjud lug‘aviy birlik va so‘zlarni tarkibga ajratishga doir muammolarni o‘rganish masalasi tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, komponent tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

o‘zbek tilshunoslarining morfemaga bo‘lgan munosabati o‘rganilishi natijasida ikki xil qarash: ushbu birlikka nisbatan an’anaviy talqin va yangicha fikr tarafdorlari (so‘zning asos qismini morfema sifatida sanamaydiganlar)ning qarashlari tahlilga tortilgan va morfema so‘zning tarkibiy qismi emasligi dalillangan;

⁷ Ҳожиёв А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясалиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979.

“sar” lisoniy elementining 1981-yilda nashr etilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da bugungi kunga qadar alohida leksema sifatida qayd etilishiga qaramay, manbalarda bu o‘z lisoniy ifoda va vazifasini topmayotganligi masalasi aniqlanib, uning leksema sifatidagi o‘rni dalillangan;

o‘zbek tilshunos olimlarining “affiksoid” borasidagi fikrlari natijasida ushbu terminning ahamiyatsiz ekanligi hozir amaliy faoliyatda bo‘lgan “O‘zbek tilining morfem lug‘ati”⁸ hamda “O‘zbek tilining so‘z tarkibi o‘quv lug‘ati”⁹ asosida uning morfema va alohida mustaqil so‘z sifatidagi o‘rni belgilab berilgan.

manbalarning o‘rganilishi natijasida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar bartaraf etilgan holda yangi “O‘zbek tilining so‘z tarkibi lug‘ati” shakllantirilgan hamda murakkab tarkibga ega so‘zlar (ravishlar, bir necha prefiksli so‘zlar, o “interfiks”li so‘zlar, arab artiklli so‘zlar, izofali birikmalar, qaratqichli birikmalarning leksikalizatsiyasi, to‘ldiruvchili birikmalar, ega-kesim munosabatli birliklar) alohida-alohida guruhlar kesimida tarkibga ajratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

so‘zlarni tarkibga ajratishga doir aniq mezon ishlab chiqilgan. Buning natijasida bugungi kunda munozarali mavzulardan bo‘lmish so‘z tarkibi muammosi muayyan darajada o‘z yechimini topgan;

o‘zbek tilshunosligidagi so‘z tarkibi bilan bog‘liq ma’lumotlar o‘rganib chiqilgan, olimlarning mavzuga oid bildirgan fikrlarini bir-biri bilan taqqoslash orqali muammolar o‘rganilgan;

so‘zlarni tarkibga ajratishga oid amaliy xulosalar shakllantirilgan;

hozir mavjud bo‘lib turgan ayrim masalalarga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha takliflar bildirilgan (affiksoidlar, “sar” leksemasi, ravishlar va h.k.);

yangi so‘z tarkibi lug‘ati foydalanish uchun tayyor holga keltirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi o‘rganilgan materiallarning o‘zbek tili tabiatidan kelib chiqqan holda xulosalar qilishga yordam berganligi, ularning asosli ekanligi, metodologik mukammalligi, o‘zbek tili izohli lug‘ati, morfem lug‘ati, so‘z tarkibi lug‘ati hamda imlo lug‘atida berilgan birliklarni tarkibga ajratishda amalda isbotlangan manbalarga tayanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, o‘zbek tilining so‘z tarkibi lug‘atini tahrir qilish, uni boyitish, amaliy samaradorligini oshirishda ilmiy-nazariy hamda amaliy manba hisoblanadi. O‘zbek tili korpuslarini yaratishning nazariy asoslarini ishlab chiqish, kompyuter lingvistikasi yo‘nalishida tadqiqotlar yaratishda ham ilmiy-nazariy manba sifatida xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati amaliy tilshunoslik bo‘limlari – so‘z tarkibi hamda morfemikaning fan sifatida o‘qitilish jarayonida dastur, rejalar tuzish hamda mavzularni bayon etishda manba vazifasini o‘tashi, bundan tashqari, ishga ilova qilinayotgan “O‘zbek tilining so‘z tarkibi lug‘ati” kitobi so‘z tarkibi masalasida hozirgi davrda eng yirik va ishonchli manba vazifasini o‘tashi mumkinligi bilan izohlanadi.

⁸ Фуломов А. ва бошқ. Ўзбек тили морфем луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – 463 бет.

⁹ Mengliyev B., Bahriddinova B. O‘zbek tilining so‘z tarkibi o‘quv lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 56 bet.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “O‘zbek tili so‘z tarkibi lug‘atini tuzishning lingvistik asoslari”ni tadqiq etish orqali olingan ilmiy natijalar asosida:

“sar”ning leksema ekanini ochib berish haqidagi, affiksoid terminining o‘zbek tilshunosligi uchun noo‘rin ekanligi borasidagi, o‘zbek tilida infikslar masalasiga doir ma‘lumotlarni to‘plash va ularning o‘zbek tili uchun xos emasligi, tilshunoslikning so‘z tarkibi hamda morfemika bo‘limlari alohida-alohida ekanligi borasidagi fikrlar, mulohaza va to‘xtamlardan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021 – 2023-yillarda amalga oshirilgan PZ-2020042022 “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 21-avgustdagi № 04/1-2140 - son ma‘lumotnomasi). Natijada affiksoid termini, o‘zbek tilida infikslar masalasi, so‘z tarkibi hamda morfemika bo‘limlari yangi ilmiy qarashlar bilan boyitilgan;

zamonaviy o‘zbek tilshunosligining rivojlanishida, o‘zbek tili birliklari lisoniy qiymatini baholash va tasniflashda, ularni Yevropa tillari qoliplaridan chiqarishda, har bir lisoniy qiymatni shu birlik yashab turgan muhitda – o‘zbek tilining tizimiy qurilishini tahlil va tasnif etishda, bu birliklarni qayta baholashda, shu asosda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga molik xulosalaridan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2020 – 2023-yillarda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida amalga oshirilgan AM-F3-201908172 “O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish” amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 21-avgustdagi № 04/1-2141 - son ma‘lumotnomasi). Natijada lisoniy birliklarni tarkibga ajratishga oid metodologiya yangi nazariy xulosalar bilan kengaygan va boyigan;

murakkab tarkibga ega bo‘lgan birliklarning (ravishlar, bir necha prefiksli so‘zlar, o “interfiks”li so‘zlar, arab artiklli so‘zlar, izofali birikmalar, qaratqichli birikmalarining leksikalizatsiyasi, to‘ldiruvchili birikmalar, ega-kesim munosabatli birliklar) hamda o‘zbek tilining izohli (1981, 2006 – 2008, 2022-yillardagi nashrlar asosida) hamda imlo lug‘atlaridagi lug‘aviy birliklarning tarkibga ajratilishi haqidagi xulosalaridan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali DMning 2024-yilning mart va avgust oylaridagi “Ta’lim va taraqqiyot”, “Adabiy jarayon”, “O‘zbekiston yoshlari” dasturlarini samarali tashkil etishda, ularning dastur va ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zMTRKning 2024-yil 23-sentabrdagi 04-36-1047-son dalolatnomasi). Natijada efirga uzatilgan ko‘rsatuv va eshittirishlarning tomoshabopligi ortgan hamda ular mazmunan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan. Bular O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola (jumladan, 8 ta respublika hamda 3 ta xorijiy jurnallarda) va tezislarda o‘z ifodasini topgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Ishning umumiy hajmi 134 sahifa.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“O‘zbek tilida so‘zlarning morfemik qurshovi va uning o‘rganilishi”** deb nomlangan. Bobda morfemaning o‘zbek tilshunosligiga kirib kelishi va uning o‘rganilishi borasida ma’lumotlar berildi. Tilshunoslarning bu boradagi qarashlari tahlil qilinib, bir-biri bilan taqqoslash orqali ular o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlar ko‘rsatib o‘tilgan. Bular o‘zbek tilshunosligidagi morfemaga bo‘lgan munosabatni aks ettiradi.

Tadqiqotning *“O‘zbek tilshunosligida morfema tushunchasining an’anaviy talqini”* deb nomlangan qismida morfemaning o‘zbek tilshunosligiga kirib kelishi va unga bo‘lgan an’anaviy munosabat o‘z aksini topgan. Ya’ni rus tilidagi mazmun-mohiyati bilan kirib kelgan morfema tushunchasining o‘zbek tilida aslida o‘zgacha ekani haqida o‘ylamay, uni shundayligicha tadqiq qilgan olimlarning shu mavzudagi qarashlari ushbu qismdan joy olgan.

Avvalo, ta’kidlash joizki, “morfema” terminiga Boduen de Kurtene tomonidan asos solingan. U morfemaga quyidagicha ta’rif beradi: tilning boshqa mayda morfologik bo‘lakka bo‘linmaydigan eng kichik morfologik birligidir. Olim morfema terminiga slavyan tillari xususiyatidan kelib chiqib ta’rif bergan. Tabiiyki, slavyan tillarining leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlari o‘zbek tilining ana shu xususiyatlari bilan mos emas va shu sabab ushbu tillardagi mavjud leksik va grammatik tamoyillarning o‘zbek tiliga kirib kelishi tilda bir qator jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi.

O‘zbek tilshunosligiga “morfema” tushunchasi slavyan tilidagi o‘ziga xos xususiyati bilan birga kirib kelganligini unga berilgan ta’rif orqali bilib olish mumkin. Ya’ni morfema – so‘zning tarkibiy qismi, eng kichik, boshqa mayda bo‘laklarga bo‘linmaydigan qism. Quyida morfemani ana shunday birlik sifatida qabul qilgan olimlarning shu mavzudagi mulohazalari bilan tanishamiz.

Ayub G‘ulomov so‘zning yasash tuzilishi bilan morfemik tuzilishini bir-biridan farqlab berdi. Uning ta’kidlashicha, so‘zning morfematik tahlilida uning morfemalari aniqlansa, so‘z yasash tahlilida so‘z yasalma sifatida doimo ikki qismga – yasovchi o‘zak yoki yasovchi negiz, yasovchi affiksga ajraladi. Shunday qilib, olim morfemika va so‘z yasalishi kabilarni alohida o‘rganish lozimligini bildirib o‘tgan. Bu bilan tilshunoslikning alohida bo‘limi – morfemikaning mavjud ekanini aniqlagan. Uning morfemani so‘zning tarkibiy qismi deb hisoblashi so‘zning tarkibiy qismi bo‘lmish asosning ham morfema hisoblashini anglatar edi. Morfema esa nafaqat o‘zbek tilshunosligida, balki agglyutinativ tillarning barchasida shakllanuvchanlik emas, shakllantiruvchanlik xususiyatiga ega bo‘ladi. Olim morfemaga mana shunday qarashni boshlab berganidan so‘ng ana shu tushuncha asosida yangi-yangi qarashlar vujudga kela boshladi. Quyida ana shular bilan tanishib o‘tamiz.

Ra'no Sayfullayeva morfemikani so'zning nomustaqil tarkibiy qismi haqidagi ta'limot ekanini ta'kidlaydi. Bu orqali morfema so'zning tarkibidagina mavjud, so'zdan tashqarida mavjud emas degan fikr anglashilib qoladi. *Olmalarning* so'zida *olma* so'ziga qo'shilayotgan *-lar* va *-ning* morfemalari faqatgina mana shu so'zga qo'shilish uchun xoslangan shakllar emas. Ular *olma* leksemasining xususiyatlariga mos keluvchi boshqa leksemalar bilan ham kelish imkoniyatiga ega. Demak, morfema so'zdan tashqarida ham mavjud. Ya'ni leksik ma'noga ega bo'lmagan ammo xususiy mazmunga ega (*-lar* – ko'plik, *-ning* - qarashlilik) birlik sanaladi. Ular o'z xususiy ma'nosini o'zi birikkan so'zlarga qo'shishi mumkin. Shunday qilib, morfemaga so'zning tarkibiy qismi sifatida qarash unga nisbatan ana shunday xato xulosaga kelishga olib keladi.

Abduzuhur Abduazizov morfemani so'zning tarkibiy qismi deb hisoblaydi. Qo'shimchasi yo'q so'zlarni shu sababdan bir morfemali so'zlar deya ta'riflaydi. Bundan tashqari, u morfemalarning so'zda kelish o'rniga ko'ra uch turi mavjud ekanini bildiradi: prefiks, infiks va suffiks. Prefiks va suffikslar masalasi aksariyat grammatika kitoblarida yoritilgan. Ammo infiks masalasi o'zbek tilida munozarali mavzulardan sanaladi. So'zning o'rtasida keluvchi bunday qo'shimchalar o'zbek tili uchun xos emas.

Yormat Tojiyev morfemaga yana boshqa tomondan yondashib yangicha fikrni ilgari surgan bo'lsa-da uning asosida baribir Ayub G'ulomov boshlab bergan morfemani so'zning tarkibiy qismi sifatida bilish mulohazasi yotadi. Y.Tojiyev qo'shimcha qo'shilmagan leksemalarni morfema sanamaydi. Olimning fikricha, morfema tarkibga ajraladigan so'zlardagina mavjud bo'ladi (Qalandar Sapayev ham morfemaga mana shunday yondashgan edi). Bu bilan olim Abduzuhur Abduazizov va boshqa ayrim tilshunos olimlar fikriga qarshi chiqmoqda. Morfemaga so'zning tarkibiy qismi sifatida qarash ana shunday mulohazaga kelishga sabab bo'ladi.

Ya'ni morfema so'zning tarkibiy qismi bo'lganidan keyin tarkibga ajralmaydigan so'zlarda uni ajratish to'g'ri bo'lmaydi. Shunday qilib, Yormat Tojiyevning morfema borasidagi ushbu qarashlari bugungi kun o'zbek tilshunosligiga mos emas. Ammo o'z davri uchun eng to'g'ri va yangicha qarash bo'lgan.

Abdulhamid Nurmonov morfemalarning mazmun va vazifasiga ko'ra quyidagi to'rt turi bor ekanini bildirib o'tadi:

- *leksik morfemalar*;
- *so'z yasovchi (derivatsion) morfemalar*;
- *grammatik ma'no ifodalovchi morfemalar*;
- *oraliq morfemalar (undov leksema, modal morfemalar);¹⁰*

¹⁰ Nurmonov A. va boshq. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001. – B. 17.

O'sha davr uchun bunday qarash to'g'ri hisoblansa-da, morfemani bunday turlarga bo'lib o'rganish uning mohiyati o'zbek tilshunosligida aniq belgilanmaganini anglatar edi. Leksik morfemalar deganda so'zning asosiy mazmunini anglatib keluvchi qism – asos (yetakchi morfema, o'zak morfema) tushunilgan. Bu esa rus tilshunosligi ta'siri natijasi hisoblanadi. So'z yasovchi morfema va grammatik ma'no ifodalovchi morfema sifatida bo'linishi esa morfema haqida bildirilgan fikrlarning bugungi kun holatiga mos kela oladi deyishimiz mumkin. Ammo *oraliq morfemalar* deyilishi morfemaning bu turiga qanday nom berishni bilmaslik ortidan kelib chiqqan deyish mumkin.

Dissertatsiyaning "*O'zbek tilshunosligida morfemaning tadqiq etilishiga doir yangicha yondashuv*" deb nomlangan qismida morfemaning o'zbek tili xususiyatiga mos ta'rifining shakllanishi va bunday qarash tarafdorlari bo'lgan olimlarning mulohazalari o'rin olgan.

Azim Hojiyevning fikricha, "morfema" degan tushunchaning mohiyati (fikir yuritilayotgan davrda) to'raligicha anglab yetilmagan. Bu rus tilidagi morfema tushunchasining o'zbek tiliga majburan moslashtirilishi bilan bog'liq. Morfema o'zbek tili lisoniy birliklaridan, ya'ni til qurilishining asosiy birliklari hisoblanuvchi birliklardan farqli holda til sistemalarini shakllantiradigan til birliklarini yasash uchun xizmat qiladi¹¹. O'zbek tilshunosligida morfemaning ana shu muhim jihati hisobga olinmagani sabab morfemaning mohiyati va u bilan bog'liq til hodisalarining mohiyatini to'g'ri va to'la yoritishning imkoni bo'lmadi. Aksariyat manbalarda morfema so'zning tarkibiy qismi deb o'rganib kelindi. Vaholanki, bu bilan morfema deb ataluvchi til birligining mohiyatini to'liq anglab yetish mumkin bo'lmaydi.

Olimning 1979-yilda nashrdan chiqqan "Hozirgi o'zbek tilida forma yasalishi" nomli kitobidan olingan quyidagi fikriga e'tibor bering: so'zning morfologik strukturasi morfemalardangina iborat emas. Forma yasalishida (so'zning morfologik strukturasi) morfemalardan tashqari so'z ham qatnashishi mumkin¹². "Morfema" tushunchasi endigina kirib kelgan paytlardayoq Azim Hojiyev o'zbek tili xususiyatidan kelib chiqib unga yetarli baho bera olganligining isboti mana shu bo'ladi, deyishimiz mumkin.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib Azim Hojiyev morfemaga shunday ta'rif beradi: "Morfema – o'z ifoda va ma'no jihatiga ega bo'lgan, so'z yasash yoki so'z shaklini yasash uchun xizmat qiladigan lisoniy birlik"¹³. Ushbu ta'rifdan ma'lum bo'ladiki, olim morfemalarning shakl (ifoda) va mazmun jihatiga ega ekanligini ta'kidlagani holda ularning vazifasiga ko'ra ikki turi:

- *so'z yasovchi*;
- *shakl yasovchi* kabilarga ajratish lozimligini bildirib o'tadi.

A.Hojiyevning ta'kidlashicha, "affiks" "morfema"ga qaraganda torroq ma'no anglatadigan til birligidir. Ya'ni barcha morfemalarni ham affiks hisoblash mumkin emas. Affiks so'zga qo'shib yoziladigan morfema sanaladi. Shu sabab

¹¹ Хожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 23.

¹² Хожиев А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясалиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б. 40.

¹³ Хожиев А. Юқорида кўрсатилган асар. – Б. 40.

uni qo'shimcha deb ham atash o'rinli bo'ladi. Ammo morfema unga qaraganda kengroq tushuncha. Ular ifoda jihatiga ko'ra:

- *affiks morfemalar (qo'shimchalar);*
- *so'z morfemalar (lug'aviy ma'noga ega bo'lmagan so'zlar) kabi turlarga bo'linadi*¹⁴.

Olim lug'aviy sistemani tashkil etadigan birliklar qatorida lug'aviy ma'no anglatmaydigan birliklarning ham qo'shib o'rganilishi mantiqqa to'g'ri kelmasligini ta'kidlagan. Bu jihatdan ana shunday birliklarning "*so'z morfemalar*" deyilishi o'rinli.

Morfemalarda polisemiya, sinonimiya va antonimiya masalasida ham olim o'z qarashlarini keltirib o'tgan. Morfemalar mustaqil leksik ma'no anglatmagani uchun ana shu ma'no bilan bog'liq holda yuzaga chiqadigan polisemiya, sinonimiya va antonimiya hodisalarining ular bilan emas, balki yasama so'zlar bilan birgalikda kelgandagina yuzaga chiqishi ta'kidlab o'tilgan. Ya'ni polisemiya, sinonimiya va antonimiya hodisalari morfemalar bilan emas, ular qo'shib kelgan leksemalar bilan birgalikda yasaliş hodisasi ro'y berganidan keyin yuzaga chiqishi o'z isbotini topgan. Quyidagi holatlarga e'tibor qiling:

1-jadval

Morfemalarda omonimiya, sinonimiya va antonimiya

Omonimiya		
1.	tiqin, yig'in, chaqin... to'lin, erkin, yashirin... ostin-ustin, birin-ketin, qishin-yozin...	Misollarda omonimiya hodisasi yuzaga chiqqan. Ammo shakldoshlik morfemada emas, asos qismning ma'nosi ta'sirida yuzaga kelayotgani ayon. Negaki, morfemaning o'zi asos qismda ajratilganida uning shakldosh ekanini isbotlashning imkoni yo'q. Qolaversa, shakldoshlik hodisasi yuzaga kelishi uchun lug'aviy ma'no muhimdir.
Sinonimiya		
2.	aravachi-aravakash, chopqir-chopag'on, xabarsiz-bexabar, qahramonlarcha-qahramonona-qahramonchasiga...	Misollarda ham shu namoyon bo'ladiki, sinonimlik uchun ham lug'aviy ma'no muhim. So'zlarda sinonimlik hodisasi asos qismning ma'nosidan anglashiladi. <i>-chi</i> – <i>-kash</i> morfemalari alohida olinganida ularni sinonim hisoblay olmaymiz.
Antonimiya		
3.	boodob-odobsiz, mevali-mevasiz, gunohkor-gunohsiz, serunum-unumsiz, serunum-kamunum, vafodor-vafosiz...	Ko'rinib turibdiki, bu misollarda ham antonimlik hodisasi lug'aviy ma'no bilan bog'langan. Keltirilgan misollardagi morfemalar alohida olinganida ushbu hodisa yuzaga chiqmaydi. Demak, yuqoridagi hodisalar (omonimiya, sinonimiya, antonimiya)ning barchasi uchun lug'aviy ma'no zarur. Shunday ekan, olimning bu boradagi fikri o'rinli.

¹⁴ Хожиев А. Юкорида кўрсатилган асар. – Б. 42.

Sho'rolar davrida o'zbek tilshunosligining boshida turgan aksariyat olimlar o'zbek tilining grammatikasi rus tilining grammatikasidan kelib chiqib moslashtirib yuborishgan. U davr uchun bu holatni qoralash xato bo'ladi. Sababi endigina yaratilayotgan grammatikani bu sohada yetarli asosga ega bo'lgan boshqa tilning grammatikasidan andoza olib tuzib chiqish eng to'g'ri yo'l bo'lardi. Ammo rus tili va o'zbek tilining xususiyatlari butkul boshqa ekani grammatikaning hamma jabhalarida bo'lmasa ham, ayrim o'rinlarda keyinroq bo'y ko'rsatdi. Akademik Azim Hojiyev mana shu masalalarga juda noziklik bilan qarab, muammolarni birma-bir hal etganini yuqorida ko'rib o'tdik.

Til birligi uchun muhim jihat mazmun jihatidir. Ana shu jihat nuqtayi nazaridan, Shavkat Rahmatullayevning fikricha, leksema va morfema bir-biridan keskin farq qiladi. Bu ikki birlikning til qurilishining boshqa-boshqa bosqichlariga mansubligi ham ularning ayrim-ayrim birliklar ekanini tasdiqlaydi.¹⁵ Bu o'zbek tilshunosligidan "*o'zak morfema*", "*o'zak*" terminlarining chiqib ketishini anglatadi. Bundan tashqari, olim morfemalarni o'rganuvchi tilshunoslik sohasini morfemika ekanligini ham bildirgan¹⁶. Shunday qilib, olim leksema va morfemani alohida tushunganini yuqoridagi manbadan bilib olishimiz mumkin. Olim Azim Hojiyevning morfema borasidagi fikrlaridan "*oziqlangan*" bo'lishi ham mumkin. Sababi olimning ushbu kitobi 2002-yilda nashrdan chiqqan. Hojiyev esa o'zbek tilshunosligidagi morfema borasidagi o'zgarishlarni 2000-yillarda boshlab bergan edi.

Baxtiyor Mengliyev morfema haqida quyidagicha fikrlarni bildirib o'tadi: Morfema – grammatik ma'no ifodalaydigan yoki so'z yasaydigan lisoniy birlik. Qo'shimcha morfemaning nutqda namoyon bo'lishi, UMISning AHVOga aylanishi. Esda tutish lozimki, yasalgan leksemalar tarkibidagi yasovchilar, garchi leksema lisoniy sathda bo'lsa ham, morfema emas, balki qo'shimcha deyiladi¹⁷. Ko'rinadiki, olim morfemani so'zning tarkibiy qismi emas, balki leksemani shakllantiruvchi birlik sifatida baholamoqda. Bu esa morfemaga o'zbek tili nuqtayi nazaridan berilgan eng to'g'ri baho hisoblanadi. Kitobning davomida olim morfemalarning so'z yasovchi va shakl yasovchi kabi turlari mavjudligini keltirib o'tadi. Bu ham hozirgi o'zbek tilshunosligi uchun o'rinli fikr deb bilamiz. Quyidagilarga e'tibor bering: *Leksemani morfema orqali ta'riflash va uni morfemaning bir turi sifatida qarash, mantiqan, lisoniy qurilishda uning alohida, mustaqil o'rni yo'q deyishning o'zi. Lekin har bir tilning izohli va tarjima lug'atlari mavjudligining o'zi leksik sathning mustaqilligi va alohidaligini ko'rsatib turadi*¹⁸. Olim leksemani morfemadan alohida birlik ekanligini mana shu mulohazalari orqali yana bir bor isbotlamoqda.

Olimning leksema va morfema borasidagi quyidagi fikrlari esa o'zbek tilida bu ikkala birlikning farqlari borasidagi munozaralarga nuqta qo'yadi deyishimiz mumkin: o'zbek tilida lisoniy sath birligi sifatida eng kichik ma'noli birlikning ikki alohida turini – leksema va morfemani qat'iy chegaralash uchun yetarli asos

¹⁵ Раҳматуллаев Ш. Тил қурилишининг асосий birlikлари. – Тошкент: Университет, 2002. – Б. 17.

¹⁶ Раҳматуллаев Ш. Юқоридаги асар. – Б. 26.

¹⁷ Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2018. – Б. 39.

¹⁸ Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2018. – Б. 110.

mavjud. O‘zbek tilida leksema va morfema boshqa-boshqa hodisa. Rus va arab tillarida leksema – morfemaning bir turi. Demak, turkiy tillarda leksemani morfemaning bir turi sifatida emas, balki lisoniy sathning morfemadan yuqoriroqda turgan va til egasi ongida borliqdagi ma’lum bir voqelik bilan bevosita aloqada bo‘lgan lisoniy birlik sifatida qarash lozim. Ma’lum bo‘ladiki, o‘zbek tilida lisoniy birliklar fonema, morfema, leksema, qolipdir. Flektiv tillarda esa lisoniy birliklar fonema, morfema, leksema va qolipdir.

Ishning ikkinchi bobi **“O‘zbek tilining so‘z tarkibi lug‘atlari: muammo va vazifalar”** deb nomlangan bo‘lib, bunda so‘z tarkibi lug‘atini tuzishdagi bugungi kun muammolari tahlil qilindi. Ushbu muammolar nafaqat so‘zning tarkibiy tuzilishi, balki uning leksik va morfologik tuzilishida ham ayrim o‘zgarishlarga olib kelishini ko‘rsatadi. Bunday bahsli mavzularga ayrim manbalarda qisqacha to‘xtalib o‘tilgan bo‘lsa-da, ular o‘z yechimini topmaganiga guvoh bo‘lamiz.

Tadqiqotning *“O‘zbek tilida “Sar” leksemasi”* nomli qismida fors tilidan kirib kelgan *“sar”* so‘zining o‘zbek tilida leksema sifatidagi mavqeyiga to‘xtalib o‘tilgan. Ushbu so‘zning ma’nolariga e’tibor beradigan bo‘lsak, uning *“bosh”*, *“kalla”*, *“boshlanish”*, *“uch”*, *“cho‘qqi”*, *“eng yaxshi”* kabi semalari mavjudligiga izohli lug‘at orqali guvoh bo‘lamiz. Mazkur so‘z haqida ma’lumotlar manbalarda kam uchraydi. Professor Baxtiyor Mengliyev o‘zining *“So‘z yasalishi o‘quv lug‘ati”* nomli kitobida *sar* ishtirok etgan so‘zlarni ajratmaganiga guvoh bo‘lamiz¹⁹. *“O‘zbek tili grammatikasi”* kitobida ham *sar* leksemasi o‘zbek tili uchun qabul qilinmaganligi ko‘rsatilgan²⁰.

Izohli lug‘atda *“sar”* birligiga alohida izohlar va misollar keltirilgan. Demak, buni so‘z sifatida qabul qilish va u qatnashgan qo‘shib yoziladigan, ikkinchi qismi o‘zbek tilida mustaqil ma’no anglata oladigan so‘zlarni qo‘shma so‘z sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan: *Sartaxta – katta, bosh, asosiy taxta*. Shunga o‘xshash so‘zlarni quyida ko‘rishingiz mumkin:

2-jadval

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”²¹da keltirilgan “sar” qismli so‘zlar

	“Sar”dan ajragan holda ma’no anglata olmaydigan:	“Sar”dan ajragan holda ma’no anglata oladigan:
1.	<i>Sarosar</i> – ma’nosi “sarbasar”ga teng; barcha, butun, boshdan oyoq;	<i>Sartaxta</i> – katta, bosh, asosiy taxta;
2.	<i>Sarbast</i> – boshi bog‘liq (sar – bosh; bast – bog‘lamoq)	<i>Sarmunshiy</i> – munshiylar boshlig‘i;
3.	<i>Sargardon</i> – boshi aylanuvchi, adashib, daydib yuruvchi;	<i>Sarkotib</i> – bosh, asosiy kotib;
4.	<i>Sargashta</i> – ma’nosi sargardon so‘ziga teng;	<i>Sarnayza</i> – nayzaning “boshi”, ya’ni uchi;
5.	<i>Sardara</i> ²² – bosh, asosiy darvoza (dara degan so‘zga aloqasi yo‘q);	<i>Sarparda</i> – bosh asosiy parda (musiqada ham). Kappa, soyabonli arava va shu kabilarning kata pardasi, yopinchiq;

¹⁹ Mengliyev B. va boshq. O‘zbek tilining so‘z yasalishi o‘quv lug‘ati. – Toshkent, 2007. – B. 91.

²⁰ Ўзбек тили грамматикаси. I том. – Тошкент: Фан, 1975. – Б. 270.

²¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. 4-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.

²² Izoh: O‘zbek tilida “Dara” degan so‘z mavjud. Lekin bu so‘z eshik, darvoza ma’nosida qo‘llanmaydi. Qarang: O‘.T.I.L. 1-tom, 556-sahifa.

Ro'yxatni hali yana davom ettirish mumkin. Xulosa sifatida aytish mumkinki, so'z yuritayotganimiz "sar" o'zbek tilida alohida leksema. Uning ishtirokidagi so'zlarni uch guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

• "Sar"ning qo'shma so'z tarkibida kelishi: *sarhisob, sarhafta, sarchashma...* (ikkinchi qismi o'zbek tilida mustaqil qo'llana oladigan so'z bo'lgani uchun ana shunday xulosa qilindi);

• "Sar"ning sodda yasama so'z sifatida kelishi: *sarpo'sh, sarbon, sarkash...* (Ikkinchi qismi o'zbek tilida so'z yasovchi qo'shimcha sifatida kelgani uchun shunday xulosa qilindi);

• "Sar"ning sodda tub so'z sifatida kelishi: *sarona, sarkarda, saramas...* (Ikkinchi qismi o'zbek tilida mustaqil qo'llana olmaydigan qismli so'z bo'lgani uchun shunday xulosa qilindi).

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, "sar" leksemasi o'zbek tilida boshqa so'zlar singari xarakterlanadi.

Dissertatsiyaning "Affiksoidlar atamasining o'zbek tilshunosligidagi ahamiyati" deb nomlangan qismidan bugungi kundagi so'zning tarkibi borasidagi muammolardan biri bo'lmish affiksoid terminining o'zbek tilshunosligi uchun noo'rinligi masalasi o'rin olgan.

Ayrim so'zlarga qo'shilib kelganida qo'shimcha sifatida, alohida kelganida esa mustaqil so'z sifatida qaraluvchi birliklar "affiksoid" termini ostida bir necha o'n yillar davomida o'rganib kelinmoqda. Manbalarda ularning prefiksoid va suffiksoid kabi turlari ham keltiriladi²³. Muammo shundan iboratki, affiksoidlar qo'shilgan so'zlar o'zbek tilida na qo'shma so'z, na sodda so'z. Ular ishtirokidagi so'zlar bugungi kunda bir qator tushunmovchiliklarga sabab bo'lmoqda. Misol uchun:

a) affiksoidli so'zlarning tuzilishiga ko'ra turi borasida aniq ma'lumot yo'q;

b) affiksoid deb ataluvchi qismning o'zbek tilida mustaqil ma'no anglatishi kerakligi borasidagi qoidaga ayrim o'rinlarda qarshi fikrlar ham uchrab turadi. Boshqa tilda so'z sifatida qo'llanadigan ammo o'zbek tilida mustaqil so'z sifatida qo'llanmaydigan qismlarning ham affiksoid sifatida o'rganilishi muammoni yanada murakkablashtiradi²⁴. Masalan, *-parvar, -parast, -furush, -shunos, -goh...* kabi so'zlarning o'zbek tilida mustaqil qo'llanmasligi;

c) bundan tashqari, o'zbek tilida mustaqil qo'llana oladigan qismli so'zlar asosga qo'shilib kelsa, ular affiksoidli so'z emas, qo'shma so'z sifatida o'rganilayotgan o'rinlar ham mavjud²⁵. Masalan, *kaltakesak, kattaqo'rg'on, itbaliq* kabilar qo'shma so'zlar sifatida o'rganiladi;

d) hatto bir kitobning o'zida affiksoid hisoblangan qism aynan o'sha kitobning o'zida rad etiladi²⁶.

Fikrimizcha, nega ayrim so'zlarga qo'shilib kelgan qismlar mustaqil qo'llansa ham affiksoid sifatida qabul qilinadi-yu, ayrim so'zlar qo'shma so'zlar sifatida o'rganilishi kerak? Nega boshqa tilda mustaqil so'z sifatida qo'llanadigan ammo

²³ Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi O'zbek adabiy tili. – Toshkent: Tamaddun, 2022. – B. 25.

²⁴ Ўзбек тили грамматикаси. I том. – Тошкент: Фан, 1975. – Б. 272.

²⁵ Ўзбек тили грамматикаси. I том. – Тошкент: Фан, 1975. – Б. 260.

²⁶ Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясашиши тизими. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007. – Б. 86-87.

o'zbek tilida mustaqil qo'llanmaydigan qismlarning ayrimlari affiksoid sifatida o'rganiladi-yu, ayrimlari, shunchaki, ko'makchi morfema bo'lib qolishi kerak?

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, tilshunoslikda muammo bo'layotgan bu holatga yuqoridagi mulohazalar bilan barham berilishi mumkin. Bugungi kunda affiksoid deb hisoblanayotgan birliklarni:

- so'z yasovchi qo'shimchalar: *-parast, -furush...*
- lug'aviy shakl yasovchilar: *-jon, -bek, -oy...*
- alohida so'zlar: *xona, noma, nim, kam...*

kabi guruhlarga bo'lib o'rganish lozim. Bu bilan tilshunoslikdagi mazkur sathga oid tushunmovchiliklarga chek qo'yiladi. Yuqoridagi mulohazalar inobatga olinar ekan, tilning leksik, morfemik va morfologik sathida mavjud bo'lgan jiddiy muammo barham topishi shubhasiz.

Tadqiqotning "*Hozirgi o'zbek tilshunosligida ravishlarning tarkibga ajratilishi*" deb nomlangan qismida ravishlarning o'zni, uning darajalanishi, yasalishi, tarkibi kabi masalalar haqida fikr yuritilgan.

O'zbek tilshunosligida ravishning so'z turkumi sifatidagi o'zni. O'zbek tilshunosligida belgi bildiruvchi so'zlar ikkiga bo'linadi. Shaxs va predmetlarning belgisi yoki harakatning belgisi. Shaxs va predmetlarning belgisi bu sifat. Harakatning belgisi esa ravishdir (ba'zan ravishlar belgining belgisini – *ko'p chiroyli*; yoki predmetning belgisini – *ancha kitob* bildirishi ham mumkin). Bunday grammatik vaziyat nafaqat rus tilshunosligida, balki ingliz tilshunosligida ham mavjud. Demak, ravishlar jahon tilshunosligida ham o'z o'rniga ega. Barcha tillarga xos bo'lgan umumiy grammatika tarkibiga predmetlarni alohida sanash, belgini alohida guruh sifatida o'rganish, harakat bildiruvchi so'zlarni boshqalaridan ayirib tahlil qilish kabilar kiradigan bo'lsa, harakatning belgisini bildiruvchi so'zlar guruhini ham alohida o'rganish shular jumlasiga kiradi. Shunday ekan, o'zbek tilida ham ushbu guruh so'zlarini alohida o'rganish va ma'noviy guruhlarga bo'lish shu til grammatikasi uchun o'rinlidir.

Ravishlarning darajalanishi masalasi. Buxoro davlat universiteti dotsenti To'lqin Asadov o'zining ravish mavzusiga bag'ishlangan bir maqolasida ushbu turkum so'zlarining darajalanmasligi haqida o'z fikrini bildirib o'tgan. Ulug'murod Amonov ham o'zining morfologiyaga bag'ishlangan o'quv qo'llanmasida ravishlarda sifatlardagi kabi daraja kategoriyasining yo'q ekanini ta'kidlagan edi. Ammo muallif ayrim ravishlarning darajalanishini inkor etmagan. Harakatning belgisini bildiruvchi ushbu turkum so'zlari ham shaxs va predmetning belgisini bildiruvchi sifatlari kabi darajalanishi mumkin. Sifatlarda ham darajalanmaydigan ravishlar bo'lgani kabi (*ro'molli, devoriy, kechki*) ravishlarda ham bu holatga duch kelishimiz mumkin (*kuni bilan, birgalikda, beixtiyor*). Shu bilan birga juda sekin, eng avval kabi so'zlarning darajalanmayotganini isbotlay olmaymiz. Ammo bunga o'xshash darajalanishga ega bo'lgan ravishlar juda kam sonni tashkil qiladi. Ravishlardagi daraja ko'rsatgichi sifatlardagi daraja ko'rsatgichiga qaraganda biroz boshqacha ekanini yuqoridagi holat ham ko'rsatishi mumkin. Sifatlarda daraja kategoriyasi sifatlarning doimiy kategoriyasi hisoblanadi. Ya'ni sifat, albatta, qaysidir daraja holatida bo'ladi (hech qanday vositalarsiz oddiy daraja shaklida). Ammo ravishlarda ham mana shunday deb ayta olmaymiz. Sanoqli ravishlarga

bunday xususiyatga egaligi ularning sifatlardagi daraja shaklidan ajralib turishini anglatmoqda.

O'zbek tilshunosligida ravishlarning tarkibi masalasi. Baxtiyor Mengliyevning kitoblari ana shu morfemalarning yaxlitlanishi haqida ma'lumot keltirilgan²⁷. Bundan tashqari yana boshqa bugungi kun olimlari yozgan kitoblarda ham shu mazmundagi ma'lumotlarni topishimiz mumkin. Demak, bugungi kun grammatikasi bilan xulosa qilsak, ravishlar tarkibidagi egalik va kelishik shakllari asosga yaxlitlanib, tarkibga ajratilmaydi. Masalan, bexosdan, qo'qqisdan, kunduzi, kechasi kabi so'zlardagi kelishik va egalik shakllari asosga yaxlitlanib qolgan. Ammo Ayub G'ulomov bexosdan so'zini bexos/dan kabi tarkibga ajratganini ko'rishimiz mumkin²⁸. Bundan tashqari, qo'qqisdan so'zini ham qo'qqis/dan kabi tarkibga ajratilganiga guvoh bo'lamiz²⁹. Demak, sovet davri o'zbek tili grammatikasida ravishlar tarkibidagi kelishik shakllari ajratilgan. Bu qoida keyinchalik o'zgargan. Ravishlar tarkibidagi egalik va kelishik shakllarining asosga yaxlitlanishi haqida ham o'zbek tilshunosligida ko'plab ma'lumotlar mavjud. "*O'zbek tili grammatikasi*" kitobida Ayub G'ulomov ravishlarning so'z o'zgartiruvchi morfemalarni qabul qilmasligi haqida ma'lumot bor³⁰. Bu ravishlar tarkibida egalik va kelishik shakllarining yaxlitlanib qolganligini anglatadi. Ammo shu kitobning o'zida ravish tarkibida kelishik shakllari, ko'plik affiksi *-lar* va *III shaxs egalik shakli -i* qatnashgan bo'lishi mumkinligini keltirgan³¹. Kitobda keltirilishicha, ravishlar tarkibida kelgan kelishik shakllari ikki xil vazifa bajaradi: a) ravishning ma'no jihatdan o'zgacha tusga kirishi. Masalan, *oldin – oldinda – oldiniga; keyin – keyinda – keyinga*. b) ravish ma'no jihatdan o'zgarmay, qo'shimcha ma'noga (ma'no kuchayishi yoki konkretlashtirish) ega bo'ladi. Masalan, *ertalab – ertalabda – ertalabdan; hozir – hozirda – hozirdan*³². Akademik Ayub G'ulomov ravishlar tarkibidagi *-lar* affiksi haqida ham to'xtalib, uning *III shaxs egalik shakli bilan birgalikda* qo'llanishini kechalari, allaqachonlari kabi misollar orqali isbotlamoqchi bo'ladi³³. Shunday qilib, Ayub G'ulomov o'zbek tilida ravishlarning so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni qabul qilmasligini ta'kidlab o'tgan ilk olimlardan biri hisoblanadi.

Ravishlarning yasalihi. Tilshunosligimizda ravish yasalihi bahsli mavzulardan biri hisoblanadi. Chunki ravishning asosiy qismi asli boshqa turkumga mansub soddalashgan, yaxlitlashgan leksemdir. Shu sababdan aksariyat tilshunoslar ravish yasalihini inkor etishib, ravishlashish (boshqa turkum so'zining ravishga o'tishi) mavjudligini tan olishadi.

Tilshunoslar ravish turkumining yasalihi sistemasiga ega emasligini *-an, -ona* qo'shimchasining arabcha va tojikcha so'z tarkibida uchrashini, *-larcha, -chasiga, -lab* kabining grammatik ma'no ifodalashi bilan va *-iga-, siga, -chasiga* kabi morfemalar bilan yasalgan so'zlarning sanoqli darajada ekanligi bilan izohlaydi³⁴.

²⁷ Mengliyev B., Xoliyov O'. O'zbek tilidan universal qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2008. – B. 209.

²⁸ Гуломов А. ва бошқ. Ўзбек тили морфем луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – Б. 45.

²⁹ Гуломов А. ва бошқ. Ўзбек тили морфем – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – Б. 350.

³⁰ Ўзбек тили грамматикаси. I том. – Тошкент: Fan, 1975. – Б. 528.

³¹ Ўзбек тили грамматикаси. I том. – Тошкент: Fan, 1975. – Б. 529.

³² Ўзбек тили грамматикаси. I том. – Тошкент: Fan, 1975. – Б. 529.

³³ Ўзбек тили грамматикаси. I том. – Тошкент: Fan, 1975. – Б. 529.

³⁴ Sayfullayeva R. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – B. 248.

Ravishlarning affiksatsiya usuli bilan yasash xususiyati mavjud ekanini aksariyat tilshunos olimlar tasdiqlashadi. Masalan, Ayub G‘ulomov³⁵, Yormat Tojiyev³⁶, Qalandar Sapayev³⁷, Baxtiyor Mengliyev³⁸, Abduvali Berdialiyev³⁹, Ulug‘ Tursunov⁴⁰, G‘anijon Abdurahmonov⁴¹, Ulug‘murod Amonov⁴², A.Anorbekova⁴³. Akademik Azim Hojiyev esa masalaga mantiqan yondashib ravishlarning yasalishi borasida o‘zining yangi-yangi g‘oyalarini berib o‘tadi.

Ravishlarning yasalishi borasida xulosa qilar ekanmiz, akademik Azim Hojiyevning aksar fikrlari o‘rinli deb bildik. Ayniqsa, *-cha*, *-chasiga*, *-larcha* kabi morfemalar haqida keltirilgan barcha mulohazalar o‘rinli. Sababi *-cha* morfemasi ko‘makchi bilan sinonimlik hosil qilishi va yuqorida olim keltirgan boshqa barcha sabablar ayni haqiqat. *-larcha* morfemasida esa ko‘plik shakli aniq sezilib turibdi. Bu esa uning qo‘shma affiks emas, ikkita alohida affiks ekanini ko‘rsatadi. Ammo yoppasiga ravish yasovchi qo‘shimchalarni yo‘q deyish ayrim morfemalarning xususiyatiga to‘g‘ri baho bermaslik bo‘ladi. Olim aytganidek, so‘z yasalishi uchun muhim bo‘lgan yasashga asos qism va yasovchi vosita kabi tarkiblar ayrim ravishlarda ko‘rinadi. Masalan, *do‘stona*, *barvaqt*, *ko‘ylakchang*, *butunlay* kabi so‘zlarda yasash hodisasi ro‘y bermayotganini isbotlay olmaymiz. Bundan tashqari, olimning *-an* va *-ona* morfemalari orqali hosil bo‘lgan so‘zlarning yasama ravish ekanini tan olmasligiga ularning chet tilidan kirganligini sabab qilib ko‘rsatishi ham biroz munozarali masaladir. Sababi o‘zbek tiliga chet tilidan ham so‘zlar, ham morfemalar o‘zlashishi mumkin. Nega boshqa morfemalarni va boshqa so‘zlarni o‘zlashtirib tarkibga ajratishimiz kerak-u, aynan shu o‘ringa kelganda bu qolip ish bermasligi kerak? Qolaversa, o‘zbek tilshunosligida so‘zlarni tarkibga ajratishning asosiy tamoyiliga (asos deb qaraladigan qism mustaqil qo‘llana olishi kerak, morfema deb qaraladigan qism esa boshqa so‘zlarga qo‘shila olishi kerak) ham yuqoridagi holat zid keladi. Shunday ekan, ularni tarkibga ajratishda va tarkiblarni tahlil qilar ekanmiz, ravishlar derivatsiyasi o‘zbek tilshunosligida o‘z o‘rniga ega degan xulosaga kelamiz.

O‘zbek tilidagi ayrim guruh so‘zlarning tarkibga ajratilishi masalasida yaxlit isonchli manba yo‘q. Borlari ham eskirgan yoki to‘liq emas. Ularda aniq bir qolip ishlamaydi. Ma’lumotlar tarqoq holatida uchraydi. Dissertatsiyaning **“O‘zbek tili so‘z tarkibi lug‘ati birliklarining struktur xususiyatlari”** deb nomlangan bobida ana shu masalalar jam qilingan va muammoli so‘zlarning barchasi yig‘ilib tahlil qilingan.

Prefikslar haqida aksariyat grammatikaga oid kitoblarda ma’lumotlar mavjud. Ularning fors-tojik tilidan o‘zlashgan ekanligi ko‘pchiligimizga ma’lum. O‘zbek tilida bunday morfemalar talaygina. Ammo prefikslarning bir asos tarkibida birdan

³⁵ Ўзбек тили грамматикаси. I том. – Тошкент: Фан, 1975. – Б. 530.

³⁶ Тожиев Ў. Ўзбек тили морфемикаси. – Тошкент, 1992. – Б. 27.

³⁷ Сапаев Қ. Ҳозирги ўзбек тили. – Тошкент: 2009. – Б. 66.

³⁸ Mengliyev B., Xoliyurov O‘. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. – Toshkent: Fan, 2008. – B. 212.

³⁹ Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Tamaddun, 2022. – B. 30.

⁴⁰ Турсунов У. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 366.

⁴¹ Abdurahmonov G‘. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – B. 280.

⁴² Amonov U. Ona tili (Morfologiya). – Buxoro: Durdona, 2021. – B. 176.

⁴³ Anorbekova A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Noshir, 2011. – B. 143.

ortiq qo'llanishi mumkin ekanligi haqidagi ma'lumotlarni deyarli uchratmaymiz. "O'zbek tili grammatikasi" kitobida Ayub G'ulomov prefikslar masalasiga to'xtalib o'tgan edi⁴⁴. Ammo kitobda ularning birdan ortiq qo'llanishi haqida ma'lumot yo'q. Ushbu kitobdan ikki yil o'tib nashrdan chiqqan "O'zbek tilining morfem lug'ati" kitobida esa, prefikslarning bir asos tarkibiga birdan ortiq qo'shilishiga guvoh bo'lamiz. Masalan, gidro/geo/log/iya⁴⁵. Ko'rinadiki, o'zbek tilshunosligida ham prefikslarning birgina so'z tarkibida birdan ortiq ishtirok etishi 1977-yildan buyun mavjud. So'zga bitta prefiks qo'shilsa, u prefiks o'zi qo'shilayotgan so'zga o'zining xususiy ma'nosini beradigan bo'lsa, yana bir qo'shimcha prefiks qo'shilganida xuddi shunday holat u so'zda qayta takrorlanadi. Ya'ni ikkinchi prefiks ham o'zining xususiy ma'nosini o'zi qo'shilayotgan so'zga yuklaydi. Shunday ekan, ularga alohida morfema sifatida qarash o'rinlidir.

O "*interfiks*"li so'zlar rus tili orqali o'zbek tiliga kirib kelgan bo'lib, u tilda "o" so'z o'rtasida keladigan infiks sanaladi. Va bu alohida morfema sifatida ajratiladi. Rus tilida ushbu infiksning vazifasi ikki leksemani bir-biriga bog'lashdir. Bunday xarakterdagi so'zlar chet tilidan shundayligicha kirib kelgan. Bundan avvalgi ishlarda bu holatga batafsil to'xtalinmagan, ya'ni bu holatga hali qo'l urilmagan, desak adashmagan bo'lamiz. Professor Ayub G'ulomovning "*O'zbek tilining morfem lug'ati*" kitobida bunday so'zlar tarkibidagi o "*infiks*"i ion/o/gen/lar, shlak/o/blok kabi tarkibga ajratilgan. Kitobda shunday xarakterdagi so'zlar deyarli bir xil tarkibga ajratilgan. Ammo *anarx/o-sindikal/izm*, *anarx/o-sindikal/ist*⁴⁶ so'zlari mana shu tarzda o'zgacha tarkibga bo'lingan. Bu bilan olim nimani nazarda tutgani bizga qorong'u. Boshqa so'zlarning ham ushbu kitobda tarkibga ajratilishiga diqqat qiladigan bo'lsak, bunday so'zlar rus tili ta'siridagi o'zbek tili grammatikasi asosida tayyorlanganini bilish qiyin emas. Ya'ni o'sha davrda o'zbek tili grammatikasi rus tili grammatikasi ta'sirida yaratilgan bo'lib, o'zbek tilshunosligidagi ko'p o'rinlarga rus tili xususiyatidan kelib chiqib xulosa qilingani bugungi kun uchun sir emas. Keyinchalik professor Abduvali Berdialiyevning Ixtiyor Ermatov bilan tayyorlangan morfemika, so'z yasalishi va morfonologiya bag'ishlangan "*Hozirgi o'zbek adabiy tili*" darsligida aynan bunday so'zlar bo'lmasa-da, ikki asos o'rtasida kelib ularni bir-biriga bog'lab keluvchi *kungaboqar* so'zi *diaxron* so'z yasashning *leksik-sintaktik* usuliga xos ekani ta'kidlab o'tilgan⁴⁷. Bizningcha ham ushbu ta'rif to'g'ri bo'ladi. Sababi bunday xarakterli so'zlardagi "o" o'zbek tilida ikki leksemaning bir-biri bilan bog'lanishi uchun xizmat qilmaydi. Bundan tashqari, bog'lash uchun xizmat qilgan taqdirda ham ular tarixiy so'z birikmasi sifatida baholanib, bugungi kunda *soddalashgan* deya qaraladi. Umuman olganda, o'zlashma so'zlar qaysi tildan kirib kelgan bo'lsa, o'sha til xususiyatidan kelib chiqib tarkibga ajratiladigan bo'lsa, nafaqat o'zbek tiliga, balki bu boshqa tillardagi so'zlarning ham tarkibga ajratilish borasidagi rivojiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'ylab ko'ring: rus tilidan kirib kelgan so'zlarni rus tili qoidalaridan kelib chiqib, arab tilidan kirib kelgan so'zlarni

⁴⁴ Ўзбек тили грамматикаси. I том. – Тошкент: Фан, 1975. – Б. 81.

⁴⁵ Ғуломов А. ва бошқ. Ўзбек тили морфем – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – Б. 69.

⁴⁶ Ғуломов А. ва бошқ. Ўзбек тили морфем – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – Б. 26.

⁴⁷ Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Tamaddun, 2022. – B. 99.

arab qoidalaridan kelib chiqib, fors tilidan kirib kelgan soʻzlarni fors tili qoidalaridan kelib chiqib tarkibga ajratilaverishi jarayonni ancha murakkablashtirib, soʻngida ishning mantiqsizligigacha taqab qoʻyishi mumkin. Shu sabab oʻzlashma soʻzlarning ham tarkibga ajratilayotganida asos va qoʻshimchalarga ajratilish borasidagi oʻzbek tilidagi yagona tamoyilga asoslanilishi vaziyatni ancha yengillatadi. Yaʼni asos deb hisoblanilayotgan qism mustaqil leksik maʼno anglatishi kerak. Qoʻshimcha deb hisoblangan qism esa, yana boshqa soʻzlarga ham qoʻshilib oʻzining xususiy grammatik va leksik maʼno(lar)ini qoʻsha olishi kerak. Shundagina tarkibga ajratish borasida aniq tizim ishlay oladi deyishimiz mumkin. Shunday qilib, yuqoridagi tahlillardan shu maʼlum boʻladiki, bunday xarakterli soʻzlar tarkibidagi “o” oʻzbek tilida tarkibga ajratilmaydi.

Oʻzbek tili lugʻat boyligida shunday tarkibga ega boʻlgan soʻzlar borki, ularning tarkibi boshqalaridan murakkabligi jihatidan ajralib turadi. Aslini olganda, oʻzbek tili agglyutinativ til boʻlganligi sababli tarkibga ajratilishi ushbu tilda muammo boʻlmasligi kerak. Ammo tilda uchraydigan fuziya, fleksiya hodisalari, chet tilidan kirib kelgan soʻzlar va ayrim tarixiy soʻzlarning soddalashishi bu jarayonni maʼlum miqdorda murakkablashtiradi. Tadqiqotning “*Murakkab tarkibga ega boʻlgan ayrim guruh soʻzlarning tahlillari*” deya nomlangan qismida ana shu xarakterga ega boʻlgan soʻzlar tahlil qilingan.

Arab artiklli soʻzlarning tarkibga ajratilishi va ularning ayrimlari tahlili. Bunday guruh tarkibiga kiruvchi soʻzlar arab tilidan kirgan boʻlib, tarkibiy qimida *al, ul, il* (bundan tashqari, artikllar shamsiy harflar oldidan kelganida keyingi undoshga qarab oʻzgarishi ham mumkin. Masalan, *assalom, at-Termiziy* singari) kabi qismlar boʻlishi bilan ajralib turadi. Umuman olganda, bunday morfemalar oʻzbek tilida ham mavjud. Ularni arab artiklli soʻzlardan farqlash lozim. Masalan, *-al* morfemasini olaylik. *Fundamental, instrumental, gorizontal* kabi soʻzlarda bu morfema sifat yasash vazifasini bajarmoqda. Ammo *alkimyo, alhol, alhosil, almisoq, alqissa* soʻzlarida esa, arab tilidagi aniqlik artikli hisoblanadi. Tarkibga ajratishdagi bugungi kunning asosiy manbalariga aylanib qolgan ayrim kitoblarda bunday soʻzlarning asos va qoʻshimchalarga ajratilishiga guvoh boʻlamiz. Masalan, *nafs-il-amr*⁴⁸, *al/xim/ik, al/ximiya*⁴⁹ kabilar.

Oʻzlashma soʻzlar qaysi tildan kirib kelgan boʻlsa, oʻsha til xususiyatidan kelib chiqib tarkibga ajratiladigan boʻlsa, nafaqat oʻzbek tiliga, balki bu boshqa tillardagi soʻzlarning ham tarkibga ajratilish borasidagi rivojiga jiddiy salbiy taʼsir koʻrsatadi. Oʻylab koʻring: rus tilidan kirib kelgan soʻzlarni rus tili qoidalaridan kelib chiqib, arab tilidan kirib kelgan soʻzlarni arab qoidalaridan kelib chiqib, fors tilidan kirib kelgan soʻzlarni fors tili qoidalaridan kelib chiqib tarkibga ajratilaverilishi jarayonni ancha murakkablashtirib, soʻngida ishning mantiqsizligigacha taqab qoʻyishi mumkin. Shu sabab oʻzlashma soʻzlarning ham tarkibga ajratilayotganida asos va qoʻshimchalarga ajratilish borasidagi oʻzbek tilidagi yagona tamoyilga asoslanilishi vaziyatni ancha yengillatadi. Yaʼni asos deb

⁴⁸ Mengliyev B. va boshq. Oʻzbek tilining soʻz yasalishi oʻquv lugʻati. – Toshkent, 2007, – B. 65.

⁴⁹ Фуломов А. ва бошқ. Ўзбек тили морфем – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – Б. 25.

hisoblanilayotgan qism mustaqil leksik ma'no anglatishi kerak. Qo'shimcha deb hisoblangan qism esa, yana boshqa so'zlarga ham qo'shib o'zining xususiy grammatik va leksik ma'no(lar)ini qo'sha olishi kerak. Shundagina tarkibga ajratish borasida aniq tizim ishlay oladi deyishimiz mumkin. Quyida arab artiklli so'zlarning tahlili berilgan.

Aksilinqilob/iy so'zi tarkibida ikkita leksema mavjud. Bular *aks* va *inqilob* so'zlaridir. *Aks* so'zi o'zbek tilida *teskari*, *zid*, *qarama-qarshi* ma'nolarini anglatadi. *Inqilob* so'zi esa, *o'zgarish*, *to'ntarish*, *isyon* kabi ma'nolarni anglatadi. *Aksilinqilob* so'zi *inqilobga qarshi* degan ma'noni anglatadi. *-iy* morfemasi hosil bo'lgan so'zdan sifat yasash uchun xizmat qilmoqda. *Aksilinqilob/chi/lik* so'zining tarkibi ham shu so'zning tarkibiga o'xshash bo'lib, bunda so'z yasovchi morfema vazifasini *-chi* va *-lik* morfemalari bajarmoqda.

Aksilharakat/chi so'zining tarkibida ham ikki leksema mavjud: *aks* va *harakat*. *Aks* so'zining ma'nosini yuqorida izohladik. *Harakat* so'zi o'zbek tilida *jismoniy faoliyat natijasida yuzaga chiqadigan jarayon* mazmunini anglatadi. Ikki leksema o'rtasida kelayotgan *-il* qismi arab artiklidir. Hosil bo'lgan so'zdan *-chi* morfemasi ot yasash uchun xizmat qilmoqda.

Bu kabi tahlillarni yana davom ettirish mumkin. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, arab artiklli so'zlarni o'zbek tilida ko'plab uchratish mumkin. Arab tilida ushbu artikllar bir necha maqsadlarda ishlatilsa-da, o'zbek tiliga o'zlashgan so'zlar tarkibidagi artikllar deyarli bir xil vazifani bajarish uchun, ya'ni so'zlarni bog'lash uchun xizmat qilayotganini yuqoridagi so'zlar tahlili misolida ko'rib o'tdik. Ular so'zning boshida va ikki leksema o'rtasida kelishi mumkin. Ushbu so'zlarning qismlarga bo'lib tahlil qilinishi esa shu guruh so'zlarining ma'nosini yanada aniqroq tushunilishiga yordam beradi.

Izofali birikmalarning tarkibga ajratilishi borasidagi qarashlar va ularning ayrimlari tahlili. Izofali birikmalar bu fors va arab tillarida aniqllovchi-aniqlanmish yoki qaratqich-qaralmish munosabatidagi so'zlar hisoblanadi. Bunday so'zlar o'zbek tilida ko'plab uchraydi. Ularning tarkibga ajratilishi borasida ham bir qancha qarashlar mavjud. Masalan, Baxtiyor Mengliyev o'zining "So'z yasalishi lug'ati" kitobida shu kabi so'zlarning tarkibga ajratilishini keltirib o'tgan. Ammo lug'atda kelayotgan *vaqt-chog'-lik* so'zi imlo lug'atga *zid*. Sababi ushbu so'zda izofa vazifasini bajarayotgan *-i* morfemasi tashlab ketilgan.⁵⁰ Xuddi shuningdek, *vaqtixushlik*, *vaqtibevaqt* so'zlari ham ana shu tarzda tahlil qilingan. "O'zbek tili grammatikasi" kitobida esa, bunday izofali birikmalarning qo'shib yozilishi va ularning o'zbek tilida bir leksemaga teng kelishi ko'rsatib o'tilgan.⁵¹ Bu esa ularning tarkibga ajratilmasligini anglatadi. Bunday birliklarning qo'shib yozilishi yoki ajratib yozilishi borasida "O'zbek tilining katta imlo lug'ati"da aniq fikrlar keltirilgan: Izofali birikmalar ajratib yoziladi. Bunda izofa undosh bilan tugagan so'zlarga *-i* shaklida, unli bilan tugagan so'zlarga *-yi* shaklida qo'shiladi: *dardi bedavo*, *nuqtayi nazar*, *tarjimai hol* kabi. Lekin izofa yozilmaydigan so'zlar, shuningdek, qismlaridan biri yoki har ikkisi o'zbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan

⁵⁰ Mengliyev B. va boshq. O'zbek tilining so'z yasalishi o'quv lug'ati. – Toshkent, 2007. – B. 115.

⁵¹ Ўзбек тили грамматикаси. I том. – Тошкент: Фан, 1975. – Б. 263.

soʻzlar qoʻshib yoziladi: *gulbeor* (*guli beor*), *dardisar* kabi.⁵² “Oʻzbek tili grammatiksi”da yana keltirilishicha, izofali birikmalar tilga qattiq oʻrnashib olganidan soʻng izofa qismi tashlanadi va qoʻshma soʻz sifatida qoʻshib yoziladi. Masalan, *gulbeor*, *joynamoz*, *gulhamishabahor*...⁵³ ushbu mulohaza amaldagi imlo lugʻatida berilayotgan qoʻshib yoziladigan izofali birikmalar haqidagi qoidaga qaraganda ancha oʻrinlidir. Sababi *bulbuligoʻyo*, *dardisar* va *gulhamishabahor* kabi qoʻshib yoziladigan izofali birikmalarning tarkibidagi qismlar oʻzbek tilida mustaqil qoʻllana oladi. “Oʻzbek tili grammatiksi”da keltirilgan yana bir holat diqqatimizni tortdi. Unda yozilishicha, oʻzbek tilining imlo lugʻatida *arz-hol* soʻzi juft ot sifatida keltirilgan. Ammo ushbu soʻz forsiy izofa hisoblanadi. Izofa tushirilganida (-i morfemasi) soʻzlar chiziqli bilan emas, qoʻshib yozilishi kerak (*gulbeor*, *joynamoz*, *gulhamishabahor* soʻzlari kabi). Ammo ushbu soʻz SSSR davridan beri imlo lugʻatlarda haligacha tahrirlanmay ana shunday juft ot sifatida kelayotganligi ajablanarli holat.

Hozirgi oʻzbek adabiy tilida izofiy birikmalarning aksariyati imloda qoʻshib yoziladi: a) *abroʻkamon*, *xamirturush*, *roʻyob*, *poydevor*, *poyustun*, *dilshikasta* kabi soʻzlarda izofa koʻrsatkichi -(y)i qoʻllanmaydi; b) *dardisar*, *bargikaram*, *bahridil*, *obihayot*, *obizamzam*, *obiravon*, *marginush*, *mardikor*, *taxtiravon* kabi soʻzlarda -(y)i izofiy koʻrsatkichi saqlanadi⁵⁴.

Bu kabi tahlillarni yana davom ettirish mumkin. Xulosa qilib shuni ayta olamizki, izofali birikmalar oʻzbek tilida koʻplab uchrashi mumkin. Bunday soʻzlarning tarkibga ajratilmasligini yuqorida koʻrib oʻtdik. Sababi ular tarkibida kelayotgan -i izofasi oʻzbek tili uchun xos boʻlmay, fors tilidan shu holatda kirib kelgan.

Qaratqichli birikmalarning leksikalizatsiyasi. Bunday guruh tarkibiga kiruvchi soʻzlar tarixan qaratuvchili birikma hisoblangan boʻlib, ular tarixiy taraqqiyot natijasida bir sintaktik birlikning mazmuni leksikalizatsiyasidan hosil boʻlgan qoʻshma soʻzlar, deyishimiz mumkin. Professor Baxtiyor Mengliyev ham oʻz kitobida bunday soʻzlarga: “*Sintaktik-leksik usulda soʻz birikmasining vaqt oʻtishi bilan qoʻshma soʻzga aylanishi*”⁵⁵ deya yuqoridagidek fikr berib oʻtgan edi. Ammo soʻz yasalishi lugʻati kitobida *ming* va *boshi* kabi soʻzlarning tarkibga ajratilganiga guvoh boʻlamiz⁵⁶. “Oʻzbek tili grammatikasi” kitobida ham bu soʻzlarning *qoʻshma ot* ekani taʼkidlab oʻtilib, undagi grammatik forma qoʻshma ot yuzaga kelgach oʻz mohiyatini yoʻqotishi va leksemaning doimiy tarkibiy qismiga aylanishi haqida maʼlumotlar bor⁵⁷. Azim Hojiyev ham oʻz kitobida bunday soʻzlarga *sintaktik-leksik usul bilan hosil boʻlgan* deya qarab, ularga soʻz *birikmasining soʻzga aylanishi* ekanini keltirib oʻtgan⁵⁸.

Aslini olganda, qoʻshib yoziladigan qoʻshma soʻzlar tarkibga ajratiladi. Masalan, *choʻlquvar*, *qushqoʻnmas*, *karnaygul*, *otquloq*, *olaqargʻa*, *qizilishton*,

⁵² Mahmudov N. Oʻzbek tilining katta imlo lugʻati. – Toshkent: Kafolat print company. 2023. – B. 17.

⁵³ Ўзбек тили грамматикаси. I том. – Тошкент: Фан, 1975. – Б. 263.

⁵⁴ Алимова З. Ўзбек тилидаги форсча-тожикча ўзлашмаларнинг фонетик, лексик-семантик хусусиятлари: фал. фан. док. ... дис. – Фарғона, 2020.

⁵⁵ Mengliyev B., Xoliyurov Oʻ. Oʻzbek tilidan universal qoʻllanma. – Toshkent: Fan, 2008. – B. 115.

⁵⁶ Mengliyev B. va boshq. Oʻzbek tilining soʻz yasalishi oʻquv lugʻati. – Toshkent, 2007. – B. 60

⁵⁷ Ўзбек тили грамматикаси. I том. – Тошкент: Фан, 1975. – Б. 261.

⁵⁸ Хожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – Б. 30.

kirsovun, qashqargul kabi. Ammo *marosim, afsona* kabilarni bildiruvchi qo'shma otlar tarkibga ajratilmaydi: *kiryuvdi, qoryog'di, urto'qmoq* kabi. Ana shu so'zlar singari qaratuvchili birikmaning leksikalizatsiyasidan hosil bo'lgan qo'shma otlar ham tarkibga ajratilmaydi. Ikkala guruh so'zlarining ham birlashtiruvchi belgisi bor. Bular tarixiy jarayondan o'tishdir. Mana shu leksikalizatsiya sabab ular tarkibga ajratilmaydi.

Shunday qilib, bunday tipdagi qo'shma otlarning tarkibga ajratilishi borasida ikki xil xulosa qilish mumkin: *-i* egalik shakli saqlangan qo'shma so'zlarning tarkibga ajratilmasligi va boshqa holatda esa ularning tarkibga ajratilishi. Bunda *buloqboshi, mingboshi, devonbegi* kabi so'zlar tarkibga ajratilmaydi. Ammo *bedapoya, qo'qongul, bilaguzuk* kabilar tarkibga ajratiladi.

To'ldiruvchili birikmalarining leksikalizatsiyasi. Ushbu guruhga kiruvchi so'zlar ham qo'shma otlar bo'lib, ularda ikki leksema o'rtasida kelishik shakllari uchraydi. Ammo tarixiy taraqqiyot natijasida bunday qo'shma so'zlarning leksikalizatsiyaga uchrashi ularning soddalashishiga, yaxlitlanib, bir so'zga aylanib qolishiga sabab bo'lgan. Bunday so'zlar haqida ma'lumot "O'zbek tili grammatikasi" kitobida⁵⁹ ilk bor uchraydi, deyishimiz mumkin. Kitobda keltirilishicha, to'ldiruvchi-to'ldirilmish munosabatidagi so'zlarga *dunyoqarash (dunyoga qarash), kallakesar (kallani kesar)* kabilar kiradi. Ularning ot+fe'l munosabatidagi leksemalar deyilishidan tarkibga ajratilishi kerak, degan fikrni anglab olish mumkin. Demak, kitob mualliflari bunday so'zlarni tarkibga ajratish tarafdori va bu bizningcha ham to'g'ri mulohaza. Yuqoridagi so'zlarning tarkibga ajratilishini Baxtiyor Mengliyevning "*So'z yasalihi lug'ati*" kitoblarida ham uchratishimiz mumkin.⁶⁰ Kitobda shunday so'zlar tarkibga ajratilganiga guvoh bo'lamiz. Shunday fikr Azim Hojiyevda ham mavjud. Olim "*O'zbek tili so'z yasalihi*" nomli kitobida *dunyoqarash* so'zining *-(i)sh* morfemasi orqali hosil qilinganini ta'kidlab o'tgan.⁶¹ Ammo *kallakesar* so'zi haqida kitobda ma'lumot berilmagan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, qo'shma so'zlar tarkibga ajratilishiga ko'ra ikkiga bo'linadi: tarkibga ajraladigan va tarkibga ajralmaydigan. Tarkibga ajratiladigan qo'shma so'zlarga *kallakesar, dunyoqarash, gultojxo'roz, tokqaychi* kabilarni kiritishimiz mumkin. Tarkibga ajratilmaydigan qo'shma so'zlarga esa, *betgachopar, kungaboqar, dilgayoqar* kabi so'zlar misol bo'la oladi.

Ega-kesim munosabatli so'zlarning leksikalizatsiyasi. Ushbu guruh tarkibiga kiruvchi so'zlar ilk bor "*O'zbek tili grammatikasi*" kitobida uchraydi.⁶² Kitobda bu guruh so'zlar qo'shma otlarni hosil qilishning bir yo'li sifatida baholangan. Bunday so'zlar tarkibidagi sintaktik aloqa vaqtlar o'tib yo'qolgani sabab ularni so'z birikmasi hisoblamaymiz. Grammatik aloqa yo'qolishi natijasida bunday guruh so'zlar soddalashgan deb hisoblash va ularni tarkibga ajratmaslik o'rinli bo'ladi.

⁵⁹ Ўзбек тили грамматикаси. I том. – Тошкент: Фан, 1975. – Б. 263.

⁶⁰ Mengliyev B. va boshq. O'zbek tilining so'z yasalihi o'quv lug'ati. – Тошкент: 2007. 26- va 45-sahifalar.

⁶¹ Хожиев А. Ўзбек тили сўз ясаиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – Б. 48.

⁶² Ўзбек тили грамматикаси. I том. – Тошкент: Фан, 1975. – Б. 262.

UMUMIY XULOSALAR

1. Avval tilda mavjud bo'lmagan grammatik birliklarni chet el tilshunosligi andozasida tashkil etish yaxshi samara berishi mumkin. Tilshunoslikda o'zga tillarning tajribasidan foydalanilar ekan, ularni qabul qilishda mazkur til xususiyatidan kelib chiqib xulosa qilinmasa, muammo muammoligicha qolaveradi.

2. Morfemaning o'zbek tilshunosligida o'rganilishiga doir manbalar yig'ib chiqildi va dissertatsiyaning shu mavzuga bag'ishlangan qismida 20 ga yaqin olimning qarashlari berib borildi, tahlil qilindi. Natijada morfemaga so'zning tarkibiy qismi sifatida qaraydigan (yetakchi morfema va ko'makchi morfema sifatida o'rganadigan) olimlar an'anaviy qarash tarafdorlari va morfemani shakllanish xususiyatiga ega emas, shakllantirish belgisigagina egaligini tan olgan olimlar mavjudligi aniqlandi.

3. Morfema borasidagi bahsli mulohazalar ko'rib o'tilib, Azim Hojiyev, Shavkat Rahmatullayev va Baxtiyor Mengliyev kabi olimlarning bu boradagi fikrlari ma'qullandi. Ushbu olimlar o'zbek tilshunosligida morfema faqatgina shakllantirish belgisigagina egaligidan kelib chiqib uning yetakchi morfema (asos) va ko'makchi morfema (qo'shimcha) kabi turlarga bo'linmasligini, bu termin shu tilda faqatgina lug'aviy birliklarni shakllantirish uchun xizmat qilishini o'z asarlarida keltirib o'tishgan.

4. So'z tarkibi lug'atining morfem lug'atdan farqi mavjud ekanligi asoslab berildi. Unga ko'ra, sobiq ittifoq davrida morfema tushunchasiga so'zning tarkibi sifatida qarash o'rinli bo'lganligi sababli so'zlarning asos va qo'shimchalarga ajratishga asoslangan lug'at morfem lug'at deb nomlangan. Keyinchalik Baxtiyor Mengliyev, Azim Hojiyev, Shavkat Rahmatullayev kabi olimlarning ushbu terminga o'zbek tili xususiyatidan kelib chiqib bergan ta'riflaridan keyin ushbu terming abo'lgan munosabat o'zgardi. Endilikda morfema shakllanish (asos) va shakllantirish (qo'shimcha) xususiyatiga ega birlik emas, faqatgina lug'aviy birliklarni shakllantirish xususiyatiga ega bo'lgan birlik (qo'shimcha) sanaladi. Shuning uchun so'zlarni asos va qo'shimchalarga ajratishga asoslangan lug'at "morfem lug'at" emas, "so'z tarkibi lug'ati" deb nomlanishi asoslandi.

5. "Sar"ning leksema sifatidagi o'rni aniq dalillar bilan mustahkamlandi. Bunga uning izohli lug'atda o'zlashma so'z sifatida alohida berilishi va u qatnashayotgan so'zlarda asosiy lug'aviy ma'noni ifodalab kela olish xususiyati sabab bo'ldi. Bundan tashqari, ushbu qism qatnashayotgan so'zlar borasida bir qator xulosalar berildi.

6. Affiksoid terminining o'zbek tilshunosligi uchun ahamiyatsiz ekanligi hozirda mavjud manbalar asosida dalillandi. Qo'shma so'z bo'lishi uchun kamida ikki mustaqil ma'noga ega bo'lgan asos kerak. O'zbek tilshunosligida affiksoidli so'zlar na qo'shma so'z, na sodda so'z (tilshunoslikda ularga so'z-qo'shimchalar sifatida qaraladi. Ya'ni so'z va qo'shimcha oraliq'ida bo'lgan birliklar sifatida baholanadi). Tadqiqot davomida ular ishtirokidagi so'zlar borasida bir-birini rad etadigan yetarlicha mulohazalar mavjud ekani ko'rib o'tildi.

7. Ravishlarning tarkibga ajratilishi borasidagi muammolar o'rganib chiqildi, soha olimlari tomonidan bildirilgan fikrlar tahlil qilindi. Unga ko'ra, ravishlarning

tarkibida egalik, kelishik va ko'plik shakllari asos tarkibiga yaxlitlanib qolishi va yasaliş xususiyatiga egaligi mavjud manbalar asosida isbotlandi. Bundan tashqari, ayrim ravish yasovchi morfemalar borasida xulosalar berildi.

8. O'zbek tilida interfiks masalasiga to'xtalib o'tilgan bo'lsa-da, bu borada aniq ma'lumot berilmagan. Keltirilgan ma'lumotlar mavzuni oydinlashtirishga ojizlik qiladi. Shu sababdan mazkur munozarali masalaga ushbu dissertatsiya ishida to'xtalib o'tildi va uning o'zbek tilshunosligi uchun ahamiyatsiz ekanligi borasida xulosa qilindi.

9. So'z tarkibi lug'atinining qurilishi jarayonida vujudga kelgan murakkab tarkibga ega so'zlar (ravishlar, bir necha prefiksli so'zlar, o "interfiks"li so'zlar, arab artiklli so'zlar, izofali birikmalar, qaratqichli birikmalarning leksikalizatsiyasi, to'ldiruvchili birikmalar, ega-kesim munosabatli birliklar) alohida-alohida guruhlariga bo'lingan holda tahlil qilindi.

10. Tadqiqot natijasida "O'zbek tilining so'z tarkibi lug'ati" ishlab chiqildi. Ushbu lug'at tarkibida 50 mingga yaqin so'zlar tahlil qilingan bo'lib, undan 422 ta qo'shimcha va uning izohi o'rin olgan.

**NAMANGAN STATE UNIVERSITY
SCIENTIFIC COUNCIL FOR AWARDED ACADEMIC
DEGREES PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 SCIENTIFIC COUNCIL**

NAMANGAN STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE

KHABIBILLAEV NODIRBEK NOSIRJON UGLI

**LINGUISTIC FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF THE LEXICAL
COMPOSITION OF THE UZBEK LANGUAGE**

10.00.01 – Uzbek language

ABSTRACT
of dissertation of doctor of philosophy (PhD) on PHILOLOGICAL SCIENCES

The theme of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation has been registered under the number B2024.3.PhD/Fil4037 at the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science, and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

The dissertation has been prepared at Namangan State Pedagogical Institute.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (uzbek, english russian (resume) on the website of Namangan state university (www.namsu.uz) and the information and education portal "ZiyoNet" (www.ziynet.uz).

Scientific supervisor:

Mengliev Bakhtiyor Rajabovich
Doctor of Filological Sciences (DSc), Professor

Official opponents:

Islamov Utkurjon Hosiljonovich
Doctor of Filological Sciences (DSc), Associate Professor

Khamroeva Shahlo Mirdjonovna
Doctor of Filological Sciences (DSc), Associate Professor

Leading organization:

Andijan State University

The defense of the dissertation will take place on "17" march 2025 at 11⁰⁰ at a meeting of the Scientific Council PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 awarding scientific degrees at Namangan State University (Address: 161, Baburshah street, Namangan city, 160107. Tel.: (+99869) 227-06-12; Tel.: (998-69) 228-85-01, Fax: (998-69) 228-85-02. Web-site: www.namdu.uz, e-mail: info@namdu.uz, fax: (+99869) 227-07-61; e-mail: info@namdu.uz).

The dissertation has been registered at the Information Resource centre of Namangan State University with the number 1780. (Address: 160107, Namangan, Boburshah street 161, Tel.: (+99869) 228-85-01).

The abstract of the dissertation was distributed on "7" march 2025.
(Register protocol numbered 29 in "5" in 2025).



Z.Y.Sodikov
Chairman of the Scientific Council
awarding scientific degrees, Doctor of
Philological Sciences (DSc), Professor

I.U.Darvishov
Scientific Secretary of the Scientific
Council awarding scientific degrees,
Doctor of Philosophy on Philological
Sciences (PhD), Associate Professor

F.I.Karimova
Chairman of the Scientific Seminar under
the Scientific Council awarding scientific
degrees, Doctor of Philological Sciences
(DSc), Associate Professor

INTRODUCTION (abstract of Doctor of philosophy (PhD) dissertation)

The Relevance and Necessity of the Dissertation Topic. The fields of morphemics and word structure have been developing as independent directions in global linguistics, while the creation of dictionaries increasingly requires advancements in national morphemics and word structure. This trend highlights the growing practical scope of research in these areas and underscores the linguistic necessity of connecting such studies with real-world applications. Today, challenges related to word segmentation are becoming more evident, leading to highly debated linguistic issues within this domain.

In global linguistics, the creation of national language corpora based on scientific approaches is essential for ensuring the effective and efficient use of linguistic units. Specifically, developing precise and comprehensive theoretical foundations for the semantic alignment of morphemes during the creation of national corpora is of critical importance. In the 21st century, there has been a notable increase in efforts to explore corpus linguistics from a scientific and theoretical perspective. Developing technologies to improve the quality of automatic translation for national languages, lemmatization and tagging algorithms, linguistic resources, text analysis tools, and translation software is becoming an essential task in the age of electronic technologies.

In contemporary times, integrating linguistic disciplines into societal applications through information technologies, including software tools, and conducting systematic scientific research on the composition of national lexical units have gained significant importance. In Uzbek linguistics, “the substantial changes in the vocabulary of the Uzbek language, influenced by large-scale transformations in the socio-economic life of the Republic and strengthened international relations with numerous developed countries, have had a marked impact on the development of the Uzbek lexicon. Consequently, efforts to compile and publish multi-volume explanatory dictionaries of the Uzbek language, reflecting these changes, have been undertaken and are driving further advancements in the field”¹. Changes in the vocabulary, particularly the influx of morphemes from foreign languages, have necessitated updates to various types of dictionaries, including the development of new versions of word structure dictionaries. While research on morphemics and word structure in Uzbek linguistics has been conducted to some extent, issues related to word composition and analysis remain unresolved. These challenges arise from factors such as insufficient evaluation of linguistic units in the language, uncritical adoption of foreign linguistic practices, adherence to traditional perspectives, and reluctance to embrace innovations in linguistic theory. This dissertation, dedicated to the development of a word structure dictionary, serves as a valuable contribution to addressing the challenges and tasks facing Uzbek linguistics. By tackling issues specific to word segmentation and composition, the research aligns with the practical and theoretical demands of the field.

Presidential Decrees and Resolutions Supporting the Research. This dissertation research contributes to the implementation of tasks outlined in several

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2023. – B. 6.

regulatory documents, including: Presidential Decree No. PF-4997, dated May 13, 2016, "On the Establishment of the Alisher Navoiy Tashkent State University of Uzbek Language and Literature"; Presidential Decree No. PF-4947, dated February 7, 2017, "On the Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan"; Presidential Decree No. PF-5850, dated October 21, 2019, "On Measures to Radically Enhance the Status and Role of the Uzbek Language as the State Language"; Presidential Decree No. PF-6084, dated October 20, 2020, "On Measures to Further Develop the Uzbek Language and Improve Language Policy"; Resolution No. PQ-2789, dated February 17, 2017, "On Measures to Further Improve the Organization, Management, and Financing of the Research Activities of the Academy of Sciences"; Resolution No. PQ-4479, dated October 4, 2019, "On Celebrating the 30th Anniversary of the Adoption of the Law on the State Language of the Republic of Uzbekistan"; and other normative and legal documents related to this field.

Alignment with the Priority Directions of the Republic's Science and Technology Development. The research aligns with the priority direction "I. Development of an Information Society and a Democratic State: Social, Legal, Economic, Cultural, Moral, and Educational Development, and the Promotion of an Innovative Economy" within the framework of the republic's science and technology development strategy.

The Degree of Investigation of the Problem. In Uzbek linguistics, numerous studies have been conducted on morphemics and word structure². Several research works, dictionaries, and manuals dedicated to improving word segmentation methods have been published. It should be noted that A.G'ulomov was the first in Uzbek linguistics to initiate the compilation of a dictionary for word segmentation³. Subsequently, and to this day, the issue of word segmentation has been studied from various perspectives. These include research on morphemics⁴, word formation⁵, and morphological derivation⁶, which provide general information and serve as key resources in this field⁷. Based on the relevance of the

